And tog`lari mintaqasida foydali qazilmalardan mis, qalayi, qurg`oshin va ruxning pnevmatolit hamda gedrotermal rudalari tarqalgan. Shuningdek kumush, oltin va nodir toshlar ham bor. And tog`larining tog` oralig`i va tog` oldi bukilmalari, ayniqsa Vinisuela hamda Kolumbiya teritoriyasida neftga bo`ydu.

Geografik orni. Janubiy Amerika to`liq G`arbiy yarimsharda joylashgan. Uning shimoliy qismida ekvator kesib o`tadi. Shimoldan janubga 7000 km, g`arbdan sharqqa 5000 km cho`zilgan. U Amerika qit`asining bir bo`lagi. Shimoliy va Janubiy Amerika materiklarining chegarasi shartli ravishda Panama kanali orqali o`tkaziladi. Materikni g`arbda Tinch sharqda esa Atlantika okeani suvlari yuvib turadi.

Geologik tuzilishi; Janubiy Amerikaning sharqiy qirg`oqlari bilan Afrikaning g`arbiy qirg`oqlari bir biriga o`xshashligi va mos kelishi dastlab materiklarning gorizantal siljishi va keyinchalik litosfera plitalari tektonikasi gepotezalariga zamin yaradi. Qadimda Janubiy Amerika yirik Gondvana quruqligi tarkibida bo`lgan. Keyingi geologek davrlarda mustaqil materikka ajralgan.

Tektonik harakatlar ta'sirida Janubiy Amerika platformasining cho`kkan joylarida botiqlar (Amozonka Orinoka La-Plata ) va ko`tarilgan qisimlarida yassitog`liklar (Giviyana, Brazilya) tarkib topgan. Yassitog`liklarda lava-vulkan yotqiziqlari ko`p uchraydi. Alp tog`burmalanishida yosh and tog` tizmalari shakllangan . Bu yerlarda harakatdagi vulkanlar , kuchli zilzilalar bo`lib turadi . SHu xususiyatiga ko`ra sohil zonasi Tinch okean "olovli halqasi" ga kiritilgan.

Foydali qazilmalari. Materikda rudali va noruda qazilma boyliklar ko`p tarqalgan. And tog`larining magmatic va mtamorfik jinslarida mis, qalay, qo`rg`oshin, oltin, kumush, platina, noruda konlardan oltingugurt, bor, tabiiy selitra. Braziliya yassi tog`ligidagi bazaltli va metamorfik jinslarda temir, olmos, uran, marganes, nekil, kobalt volfram zaxiralari ko`p. Bu yerdagi qazilma boyliklardan mis, qalayi , molibdin, volfram

,umush,qo`rg`oshin va rux dunyo ahamiyatiga ega.Cho`kindi tog` jinslari to`plangan joyda neft,tabiy gaz,toshko`mir konlari bor.Relifi;Janubiy Amerika hududi relief tuzilishiga ko`ra ikki qismga bo`linadi.1-tog`li g`arb.bu deyarli meridional yo`nalishdagi eng uzun(9000km)And tog` tizmasidir.And tog`lari kop qismida tog`tizmalarini markaziy qismida tog`lik va yassi tog`liklarni (3500-4500m) hosil qiladi.Bu yerda dunyodagi eng baland harakatdagi vulkan,-lyulyako(6723m) materikning eng baland nuqtasi Akonkagua (6960m)va boshqalar bor.Dunyodagi eng baland tog` ko`llaridan biri Titikako (3810m)ham shu yerda joylashgan.And tizmasining tabiy sharoiti va landshaft kopliklari shimoldan janubga qarab o`zgarib borib Karib Andi,Ekvator Andi,Markaziy and,Patagoniya Andi va boshqa qismlarga bo`linadi.Materikning ikkinchi sharqiy qismi katta maydonni egallaydi tekislik va yassi tog`likdan iborat.Dunyodagi eng yirik Amazonka,nisbatan kichikroq La-Plata va Oraniko pasttekisliklari ular oralig`idagi Braziliya va Gviana yssi tog`liklari shu hududda joylashgan.Yassi tog`liklar yer yoriqlari va tor hamda chuqur daryo vodiylar bilan parchalangan.

II.BOB.JANUBIY AMERIKANING SHAKILLANISHI VA ASOSIY XUSUSIYATLARI.

Janubiy Amerikaning katta qism janubiy yarim sharda ekvatorial va subekvatorial mintaqalarda joylashgan.Materikning kamroq qismigina subtropik va o`rtacha kengliklarga kirib brogan.

Janubiy Amerika 5-gradus janubiy kenglikda joylashgan materikning eng g`arbiy nuqtasi Pariniyas burni,eng sharqiy nuqtasi esa Kabu-Branku burnidir.

Materikning kengligi 40-gradus sh.k.dan janubda 600km dan oshmaydi.SHimoliy Amerika bilan bulgan geografik chegarasi Karib dengizidagi Darin qultig`dan Tinch okeanidagi Buenaventura qultig`igacha davom etadi.Panama buyni shartli ravishda har ikki materik o`rtasidagi chegara deb qabul qilingan.

Janubiy Amerika mterigi atrofida orollar kam.Soxilga eng yaqin joylashgan yirik materik orollari Trinidat,Chili, Olovli yer, Polklend orollaridir.Okianik orollardan

Janubiy Amerikaga Galopogos va Xuan-Fernandes orollari kiradi. Janubiy Amerikaning maydoni unga qarashli orollar bilan birga 17850 ming km. kv bundan atiga 150 ming km kv qismi orollarga tug`ri keladi.

Atlantika okeanida ekvator yaqinida Janubiy Amerika qirg`oqlariga janubiy passat oqimi yaqinlashib keladi. Bu oqim San-roka yaqinida ikki qisimga bo`linadi ularning biri Gviniya oqimi nomi bilan materik qirg`oqlari buylab shimoli g`arbga Antel orollariga yunladi ,ikkinchisi esa Braziliya oqimi nomi bilan janubi g`arbga, La-plata daryosining quyar joyida tomon ketadi materikning janubiy sharqiy soxillaridan sovuq Folklent oqimi utadi. Braziliya va Folklent oqimlari La-plata rayonida 40-janubiy kenglik bilan 35- janubiy kenglik orasida o`zaro uchrashadi. Atlantika okeani sohilida quruqlikka chuqur kirib boruvchi yirik qulqlar diyarli yuq faqat janubi sharqda Patagoniya qirg`oqlariga yarim oy shaklidagi San-Matias, San-xorxe va boshqa buxtalar kirib kelgan. Panama daryosining quyar joyida qirg`oq La-plataning keng va uzun estuariyasi tufayli uyilib ketgan undan shimolroqda Janubiy Amerika sohilida chuqur va kemalar turushi uchun qulay buxtalar(qulqichalar) joylashgan .Eng katta daryolarning, birinchi navbatda Amazonkaning quyar joyida juda keng buxtalar bor. Karib dengizi sohilida katta yarim orollar qulay qulqlarni bir biridan ajratib turadi shimolda Pariya qulqig`i va Pariya yarim oroli, eng katta Vinisuela qulqig`i ajrali turadi Vinisuela qulqig`i shimoli g`arb va sharqda Guaxera hamda Paraguana yarim orollari bilan chigaralanadi. Panama buynining boshlanishida dengizga keng ochiq Daren qulqig`i bor .

Kontinental platforma Tinch okeanida Janubiy Amerika qirg`oqlari yaqinida juda kam, ayrim joylarda umuman yo`q .Materik yaqinida eng chuqur joylari 7000m dan ortadigan chuqur okean chukmalari bor iliq oqimlar tasiri ekvatoridan shimoldagina bilinadi Janubiy Amerika tinch okeani sohillarining boshqa butun qismida esa juda katta sovuq Peru oqimining tasiri seziladi Peru oqimi suvlari janubdan to ekvatorgacha boradi.

Materikning shimoli g`arbiy sohili taxminan 5- janubiy kenglikgacha juda uylgan .Eng katta va qulay buxta Guayaxi buxtasidir janubroqdan to 30-janubiy kenglikkacha qirg`oq uyulmagan , baland va kema kirib kelishi uchun noqulay .

Biroq Tinch okeani soxillarining eng janubiy qismi bulinib ketgan soxil bo`ylab joylashgan kuplab mayda va yirik orollar chile hamda Olovli yer arxipelaglarini xosil qiladi. Materik soxiliga uyib kirgan qulqlar va ayrim orollarni bir biridan ajratib turuvchi bo`g`ozlar egri-bugri va tordir. Bularga kattagina Korkovado va penyaz qulqlari shuningdek Olovli yer arxipelagini materikdan ajratib turuvchi Magellan bug`ozi misol bo`la oladi.

Janubiy Amerika ekvatorning har ikkala tomonida joylashgan ,biroq uning asosiy qismi janubiy yarim shardadir. Materikning eng keng qismi tropiklar orasida joylashgan bolib, subtropik va o`rtacha kengliklarda kambar hamda qirg`oqlari uyilib ketgan qismi joylashgan .

Janubiy Amerikada Shimoliy Amerikadagi kabi iqlim xosil qiluvchi oqim uning orografiyasidir .Materik g`arbiy chekkasining katta qismi Janubiy tinch okoeani masimumi va u bilan bog`liq bulgan janubiy va janubi g`arbiy shamollar hamda passat envirsiyasining tasiridadir Materikning shmoli-g`arbiy sohli taxminan 5gradus j.k.gacha juda uyilgan. Eng katta va qulay buxta-Guayaxil buxtasidir. Janubroqda to 30gradus j.k.gacha qirg`oq diyarli uyilmagan baland va kema kirib kelishi uchun noqulay. Biroq Tinch okean soxillarining eng janubiy qismi bo`linib-bo`linib ketgan soxiln bo`ylab joylashgan ko`plab mayday va yirik orollar Chile hamda Olovli Yer arxipelaglarini xosil qiladi. Materik soxiliga uyib kirgan qulqlar va ayrim orollarni bir-biridan ajratib tiruvchi bo`g`ozlar egri-bugri va tordir. Bularga kattagina Korkovado va pinyas qulqlari shuningdek ,Olovli yer arxipelagini materikdan ajratib turuvchi Magellan bo`g`ozi misol bula oladi.

Janubiy Amerika orografiyasi bilan Shimoliy Amerika orografiyasi o`rtasida bir qadar uxshashlik bor .Sharqda Atlantika okeani qirg`oqlari yaqinda Braziliya va Gviana tog`liklari hamda Patagoniya platosi bor. Materikning chekka g`arbi va shimoli –g`arbida uning qirg`oqlari qiyofasiga mos ravishdav dunyodagi eng uzun tog` sestimasi And yoki Janubiy Amerika kordilierasi tog`lari 9ming km gacha chuzilgan. Tog`liklar bilan And tog`lri orasidagi materikning taxminan 45%ni egallagan. Juda katta Amazonka ,Orinoko va Paragvay –Parana (La-Plata) pastak tekisliklari bor. Ulardan Janubiy Amerikaning eng katta daryolari oqib utadi .Bu tekisliklar materikning urta qismida yaxlit tekisliklar

polosasi xosil qilib bir-biriga tutashib ketgan. Shimoliy Amerika bilan Janubiy Amerikaning orografik jihatdan bir-biriga uxshashligi har ikkala materik rivojlanishi va strukturasi g'arbiy chekka qisimlari Tinch okean mintaqasining burmali tog'lariga kiradi va xolatki, ularning katta sharqiy qisimlari platforma tuzulishiga ega. Biroq Janubiy Amerikaning platforma qismi tuzulishi va rivojlanishiga ko'ra Shimoliy Amerikadan ko'ra Afrikaga o'xshash.

Yuqorida aytilganidek Janubiy Amerika platformasi juda katta Gviana-Braziliya megaqalqoni bilan Pampa –Patagoniya itasidan tashkil topgan.

Megaqalqon doirasida fundamentning yer betiga chiqqan 3ta qismi bor. Bular Gviana, G'arbiy Braziliya va Sharqiy Braziliya qalqonlaridir.

Janubiy Amerikaning Orinoko pasttekisligi Karib dengizi soxillari Gviana tog'ligining katta qismi va Gviana pasttekisligini u o'z ichiga olgan butun shimoliy qismi subekvatorial iqlim mintaqasida joylashgan.

2.1. TABIATI SHAKILLANISHINING ASOSIY BOSQICHLARI.

Janubiy Amerika materigida kenglik va balandlik tabiat zonalligi kuzatiladi. Uning tekislik qismida ekvatorial, subekvatorial o'rmonlar, savannalar, dasht, chalacho'l, cho'l va keng bargli o'rmonlar zonalari shakillangan.

Ekvatorial o'rmonlar zonasi. Janubiy Amerika ekvatorial o'rmonlar zonasi ekvatorning har ikki tomonida joylashgan. Ekvatorial o'rmonlar bu yerda selva (portugalcha "o'rmon") deb ataladi. Janubiy Amerikada ekvatorial o'rmonlar katta maydonni egallagan. Amazonka havzasidagi o'rmonlar egallagan hududga Amazoniya deb nom berilgan. Faqat Braziliya Amazoniyasidagina 4000 mingga yaqin daraxt uchraydi. Amazoniya ko'pgina qimmatbaxo daraxtlar-kauchik beradigan geveya daraxti palmalarining har xil turlari kakao daraxti, seba (paxta) daraxti balandligi 80m qovun daraxti va boshqalar vatani hisoblanadi.

Eng yengil qattiq bals daraxti shu zonada o'sadi. Undan T. Xeyerdal o'zining "Kon-Tiki" kemasini yasagan o'rmonlarda yirik daraxtlar tanasiga chirmashib ketgan chirmoviq o'simliklar o'sadi.

Afrikadagidek bu yerda ham ekvatorial o'rmonlar tagida podzolashgan laterit tuproqlar –qizil sariq ferralit vujudga kelgan.

Zonaning hayvonot dunyosi osiyo va Afrika hayvonlari kabi daraxtlarda yashashga moslashgan. Masalan dumi bilan osilib yashashga moslashgan maymunlar yalqovlar hatto qurbaqa va kaltakesaklar ham daraxtlarda yashaydi. Daryolar bo'yida suv havzalarida va botqoqli yerlarda tuyoqli hayvonlar –tapirlar uchraydi.

Subekvatorial o'rmonlar zonasi. Buzona Braziliya hamda Gviana tog'liklarining shimoliy yonbag'irlarini egallaydi. Braziliya tog'ligidagi o'rmonlarda yomg'irli mavsum uzoq davom etadi qurg'oqchil davr esa 3-4 oygacha cho'ziladi. Shu sababli o'rmonlarda bargini to'kadigan daraxtlar soni ortib boradi. Subekvatorial o'rmonlarda yiliga 2000-3000 mm yog'in yog'adi Gviana tog'larining shimoliy qismida yog'in bundan ham ko'p yog'adi Gviana tog'ligining shimoliy qismida yog'in bundan ham ko'p yog'adi. Natijada doimiy yashil o'rmonlar tarkib topgan.

Savannalar zonasi subekvatorial iqlim mintaqalari hududidagi past tekisliklarda yassi tog'liklardan tarkib topgan. Materikning shimoliy yarimsharidagi savannalarda daraxt o'simliklar ko'p Janubiy yarimshardagi savannalarda esa kam o'sadi.

Dashtlar zonasi. Savannalarda janubda subtropik iqlim mintaqasida dashtlar zonasi jylashgan. Dashtlar janubiy Afrikada Pampa (indislar tiida "daraxtsiz" yerlar) deb ataladi. Dashtlarda asosan o't o'simliklardan chalov betaga, yovoyi tariq va boshqalar uchraydi.

Sernam subtropik iqlim sharoitida hosildor qizil ferralit tuproqlar hosil bo'lgan. Pampalarda lamalar tuyaqushlar pampa mushugi va boshqa hayvonlar yashaydi.

Cho'l vachalacho'l zonasi. Janubiy Afrikada tropic cho'llar yo'q. Faqat Tinch okean sohillarida sovuq peru oqimi tasirida atakama cho'li tarkib topgan bu cho'lda 25-100mm yog'in yog'adi bazan yog'in yog'maydi. Cho'l o'simliklari namlikni tuman va shudringdan oladi. Iqlim mintaqasida chalacho'llar zonasi tarkib topgan. Tabiiy sharoiti qattiq yog'in kam yog'adigan bu o'lka patagoniya deb ataladi. Bu zonada kam hosilli

boʻz tuproqlar keng tarqalgan. Oʻsimlik qoplami juda siyrak ular chimli gʻallagullilar va tikanli butalardan iborat.

Balandlik mintaqalari .And togʻlari bir necha iqlim mintaqalarini kesib oʻtadi. Balantlik mintaqalarining koʻp yoki kam boʻlishi ,asosan ,ikki sababga ;togʻ tizimlarining balandligiga va ularning ekvatorga yaqin yoki undan uzoqda joylashganligiga bogʻliq Masalan ekvatorga yaqin joylarda And togʻlarining balandligi 5000-6000 metrni tashkil etadi.Bu yerda quyidagi balandlik mintaqalari uchraydi.

Suptropik minqaning And togʻ etaklarida chalachoʻllar uchraydi.Yuqoriga koʻtarilgan sari bu mintaqqa qattiq bargli doimiy yashil oʻrmonlar va butazorlar mintaqasi bilan almashinadi.Undan balanda bargini toʻkuvchi buk oʻrmonlari mintaqasi undan ham yuqorida Alp oʻtloqlari joylashgan.Markaziy And yassi togʻliklarida esa togʻ chalachoʻllar hosil boʻlgan.

And togʻlarining hayvonot dunyosi juda xilma xil bu yerda koʻzaynakli ayiq moʻynali shinshilla yovoyi lamalar uchraydi.

Janubiy Amerika hududining relifidagi tofovutiga asoslanib unda ikkita yirik tabiiy geografik oʻlkaga ajralgan.-Togʻli gʻarb va tekislikli sharq.oʻz navbatida bu oʻlkalar tabiiy xususiyatlariga qarab bir nisha kichikroq tabiat kompliksalariga boʻlinadi.Jumladan togʻli hududida Shimoliy Markaziy va Janubiy And tekislikli hududida Oraniko Amazoniya Gviana va Braziliya yassitogʻlari Patagoniya kabi kichik tabiiy oʻlkalarni ajratish mumkin.Quyida ayrim tabiat kompliksalariga qisqacha tafsif beramiz

Amazoniya materikning eng katta botqoqlashgan pasttekislikdir. U Gviana va Braziliya yassi togʻluiklari oraligʻida joylashgan bu pastekislik platformaning botiq qismi dengz koʻl va daryo yotqiziqlari bilan toʻlishi natijasida paydo boʻlgan.

Amazoniyaning gʻarbiy qismi koʻp yarusli doimiy yashil ekvatorial oʻrmonlar bilan qoplangan.Oʻrmonlarda yoʻgʻonligi 15 quloch keladigan baland boʻyli seyba-daraxti qimmatli yogʻoch beradigan sedrella daraxti xilma-xil palmalar Braziliya nomininhg kelib chiqishiga sabab boʻlgan Pay brazil daraxti (qizil daraxt)oʻsadi.

Bu kichik oʻlkada daraxt baqalari turli xil ilonlar eng katta ilon anaconda tashbaqa va kaltakesak kabi hayvonlar yashaydi.

Daryolarda shuningdek kaymanlar alegatorlar ham uchraydi.

Amazoniya hududidagi chukindi jinslar orasidagi neft,tabiiy gaz,rangdor metallar marganes temir konlari topilgan.

Braziliya yassi tog`ligi Amazonka va La-Plata pastekisliklari hamda Atlantika okeani oralig`ida joylashgan.U asosan eng qadimgi Kristal va metamorfik tog` jinslaridan tuzilgan. Kristal jinslar orasini temir,olmos,oltin,uran rudalari,marganes,rangdor metal rudalarining katta konlar bor. Yassi tog`liklarning yuzasi chuqur daryo vodiylari bilan parchalangan ular past-baland qirlarni eslatadi. Yassi tog`likning katta qismi subekvatorial va tropik janubiy qismi esa subtropik mintaqalarda joylashgan.Shuning uchun bu o`lkada yanvarning o`rtacha harorati +22 grCdan +29 gr Cgacha ,iyulning o`rtacha harorati +12 gr Cgacha kuzatildi.yillik yog`in miqdori o`rtacha 1400 -2000mm ga teng.Braziliya yassi tog`ligining barcha daryolari yomg`irdan toyinadi daryolar rejimida qishda suv kamayadi va yozda esa ko`payadi.

Bu yerda doimiy sernam yashil tropic o`rmonlar Atlantika okeanidanuzoqlashgan sari butazor savannalar hamda o`tloq savannalar bilan almashinib boradi. Shimoliy qismidagi o`rmonlarda yilimli palma o`sadi.Janubida Braziliya araukaliyasi doimiy yashil vasubtropik o`rmonlar bor. O`rmonlarningb birinchi yarusida doimiy yashil o`simliklar keng tarqalgan ular orasida Pragvay choyi alohida ajralib turadi. Siyrak o`rmonlardan va savannalardan qizil tumshuq ,yolli bo`ri,qizil bug`u nandu ,tuyaqush va tapirlar yashaydi.

Yassi tog`liklarning daraxtlardan ochilgan joylaridan paxta shakarqamish kaka ova boshqa tropic ekinlar ekiladi. O`lkaning daryolarida ostonalar va sharsharalar ko`p. ular juda katta gedroenirgiyaga zaxirasiga ega bo`lib eliktr stansiyalar qurilgan.

Janubiy Amerika iqlimining tarkib topishida quyosh radiatsiyasi yer relifi havo massalari okean oqimlari muhim rol o`ynaydi.

Materikning markaziy va shimoliy qismlari ekvatorial va tropic havo massalari hukumronlik qiladi. Ushbu havo massalarida Janubiy Amerika iqlimining shakillanishida yetakchi omillardan hisoblanadi.

Janubiy Amerika eng nam materikdir. Unga Atlantika okeanidan esadigan nam havo massalari juda ko`p yog`in keltiradi. Bunda Gviana va Braziliya iqlim omillarining

hissasi katta. Aksincha Peru va Folknend sovuq oqimlari materikning g'arbiy va janubi-sharqiy sohillariga yog'inlarni olib kelmaydi.

Materik oltita iqlim mintaqasida joylashgan. Ular shimoldan janubga quyidagi tartibda almashinadi: subekvatorial (2ta), ekvatorial, tropik, subtropik va mo'tadil. Tog'larida balandlik iqlim mintaqalari mavjud.

Ekvatorial iqlim mintaqasi Afrikadek juda sernam yog'inlar miqdori 3500 mm dank o'p. Yil davomida havo harorati 24-25 gr C atrofida. Subekvatorial iqlim mintaqasida ikkita fasil aniq ifodalanadi. Yozda yog'in ko'p yog'adi (1000-2000 mm) o'rtacha oylik harorat 25 gr C dan oshadi. Qishda bir necha oylab yog'in yog'maydi. Bu fasilda havo harorati +20gr C atrofida bo'ladi.

Tropik mintaqalarning sharqiy qismlari Passat shamollarining tasirida bo'ladi. Shuning uchun Braziliya yassi tog'ligining sharqiy qismlariga 1500-2000 mm atrofida yog'in yog'adi. Bu yerlarda yerning asosiy qismida havo nam va issiq bo'ladi. Yanvarning o'tacha harorati +25 gr C, iyulda esa +17 gr C +19 gr C ni tashkil etadi. Lekin g'arbga tomon borgan sari havodagi namlik kamaya borib And tog'lariga yaqin joylarga 250-500 mm yog'in tushadi.

Tropik mintaqaning Tinch okean sohillariga Peru sovuq oqimi yog'in keltirmaydi va deyarli yog'in yog'maydi. Natijada shudring Afrikadagi Namip cho'li kabi Atakama cho'li namligining yagona namligi hisoblanadi.

Subtropik iqlim mintaqasi materikning 30 va 40-gr jk oralig'dagi hududlarni egallaydi. Mintaqaning sharqida namgarchilik ko'p (1000-2000 mm) yanvarda havo harorati +25 gr iyulda +10gr +15 gr atrofida bo'ladi. Materikningb ichkarisi tomon namgarchilik kamaya boradi (500-300 mm) Tinch okean sohillarida sernam o'rta dengiz iqlimi tarkib topgan.

2.2.JANUBIY AMERIKA AXOLISINING MILLIY VA ETNIK TARKIBI.

Janubiy Amerikada 387 mln aholi yashaydi. (2008-yil)ularning tarkibi juda murakkab. Materikka kishilar bundan 20 ming yillar ilgari osiyodan kelgan. XVI-asrda dastlab ispanlar bilan portugallar keyinchalik esa Yevropa Osiyo va Afrika mamlakatlarida kelib o`rnashgan.

Hozirgi paytda Janubiy Afrikada insoniyatning har uchala irqi vakillari yashaydi. Lekin aholini tarkibi juda murakkablashib ketgan. Masalan yevropaliklar bilan indeslarning chatishshidan hosil bo`lgan avlodlar mitislar yevropaliklar bilan negirlar nikohi avlodlari mo`latlar yashaydi. Indeslar bilan negirlar chatishmasi sambo deb ataladi. Aholining ko`pchiligi ispan tilida, Braziliyaliklar Portugal tilida so`lashadi.

Janubiy Amerika Karib dengizi va Atlantika okeani havzasi mamlakatlari aholisining son jihatdan tez ko`payish davri o`tgan asrning 60-70-yillarga to`g`ri keladi. Aholinig tabiiy o`sish ko`rsatkichlari hozir bu mintaqada 13(jaxon bo`yicha 12)primilliga tengdir.

Janubiy Amerika Karib dengizi va Atlantika okeani havzasi aholisining etnik tarkibi asosan uch irq xalqlariga taqaladi. Ular mongoloid (tub xalqlar-mahalliy hindular) yevropoid va negroid irqiga mansub xalqlardir.

Janubiy Amerikada aholi kam va juda noteks joylashgan. Materikning faqat chekka qismlarida asosan Atlantika okeani sohillarida va And tog`larining ayrim rayonlarida aholi zich o`rnashgan. Shu bilan birga ichki rayonlarda masalan o`rmon bilan qoplangan Amazonka pasttekisligida aholi deyarli butunlay yo`q.

Janubiy Amerikaning tib joy aholisi bo`lgan indeslarning qayerdan kelganligi masalasida uzoq vaqtgacha fikirlar turlicha bo`lgan.

Janubiy Amerikaga Osiyodan mongoloidlar eramizdan taxminan 20-30ming yil ilgari Shimoliy Amerika orqali kelib o`rnashgan degan qarash eng keng tarqalgan. Lekin bazi bir olimlar Janubiy Amerika endees xalqlari bilan okeaniya xalqlarining bazi bir antropologek o`xshashliklarga (burning yapaloqligi sochining to`lqinsimonligi soqolining qalinligi) va ularda bir xil mehnat qurollari orligiga asoslanib aholi Janubiy Amerikaga Tinch okean orollaridan kelib o`rnashgan degan fikrni aytadilar. Biroq bu fikr tarafdorlari ozchilikni tashkil etadi. Ko`pchilik olimlar Janubiy Amerika sohilida okeyaniyaliklar belgilarining mavjudligini bu yerda osiyoning shimoli-sharqi

vaShimoliy Amerika orqali mongoloid halqlar bilan birga okiyaniya irqining vakillari ham kirib kelishi mumkin deb tushuntirishadi.

Janubiy Amerika indeeslarining hozirgi vaqtdagi soni “oqlar” hukumronlik qilgan vaqtda juda qisqargan bo`lishiga qaramay Shimoliy Amerikadagidan ancha ko`p .Bazi bir mamlakatlarda indeeslar hozirgi vaqtga qadar aholining anchagina prosentini tashkil etadi.Peru Ikvador va Boliviya da indeeslar aholining yarimiga yaqinini tashkil etadi bazi o`lkalarda esa ular ko`pchilikni tashkil qiladi. Paragvay aholisining katta qismi kelib chiqishiga ko`ra indeeslar Kolumbiya da ham indeeslar ko`p.Argentina Urugvay,va Chilida indeeslar mustamlakachiligining dastlabki davridayoq deyarli butunlay qirib tashlangan edi hozir bu mamlakatlarda ular juda kam Braziliya da ham indees aholisi to`xtovsiz kamayib bormoqda

Umuman olganda Janubiy Amerika indeeslari xali juda zayif o`rganilgan va xozirga hozirga qadar ularning yetarli darajada ilmiy va yagona klasifikasiyasi yo`q.Janubiy Amerikaning barcha indees aholisi antropologek jihatdan bir xil va Shimoliy Amerika indeeslariga aqin turadi.Indees halqlarining tillariga ko`ra lassivikatsiyasi yaxshiroq rivojlangan.Biroq bu masalada ham qabul qilingan bir xil fikr yo`q chunki Janubiy Amerikada indeeslarning tili juda xilma –xil va ulardan ko`pi shunchalik o`ziga xos tilga egaki ularni til oilasi yoki gruppasiga brlashtirish mumkin emas. Bundan tashqari ilgari materikda keng tarqalgan til oilalari va ayrim tillar hozir deyarli yoki butunlay yo`qoldi chunki bu tillarda so`zlashuvchi xalqlar yevropaliklar mustamlakachiligi natijasida bo`lib bitdi. Boshqalardan ajralgan holda yashovchi ko`pgina indees ilatlari va xalqlari tillari hozirgi vaqtga qadarli ham deyarli o`rganilmay qolib kelmoqda.

Jaubiy Amerikaning tub joy aholisi yevropaliklar mustamlakachiligi boshlanishi oldidan rivojlanish darajasiga ko`ra 2ta katta gruppaga bo`linar edi. Bu tafovutlar muayyan darajada hozirgi vaqtgacha ham saqlanib qolgan. And tog`laridan sharqdagi yerlarda joylashgan xalqlar ibtidoiy jamoa tuzumi bosqichida bo`lib hayot uchun zarur narsalarni ovchilik baliq tutish mevalar yig`ish yo`li bilan topar edi.

Aholining anchagina qismi ayniqsa Atlantika bo`yidagi o`lkalarda (Brazilita ,Gviana ,Surinam) negirlar tashkil qiladi. Bular mustamlaka qilishning dastlabki davrida

yani plantassiyalarida ishlatish uchun ko'p va arzon ishchi kuchi kerak bo'lgan vaqtda Janubiy Amerikaga keltirilgan negir qullarning avlodlaridir. Negirlarning bir qismi oq va indees axoli bilan chatishgan buning natijasida ham chatishma aholi: Negirlar oqlardan mo'latlar negirlar bilan indeeslardan sambolar vujudga kelgan.

Niger qullar ekspluatsiyasidan qutilish uchun o'z xo'jayinlarida qochib tropik o'rmonlarda yashirinishar edi. Ularning indeeslar bilan qisman chatishgan avlodlari bazi joylarda hozirga qadar ham ibtidoiy o'rmon xo'jaligi bilan joylarda hozirga qadar ham iptidoiy o'rmon xo'jaligi bilan shug'ullanib keladi .

Janubiy Amirika respublikalarining mustaqilligi e'lon qilinguncha yani XIX-asrning birinchi yarimiga qadar Janubiy Amerikaga boshqa mamlakatlardan ko'chib kelish emmigratsiya man qilingan edi. Lekin yangidan tashkil topgan respublikalarning hukumatlari o'z mamlakatlarini rivojlantirishni va bo'sh yotgan yerlarni o'zlashtirishni ko'zlab emmigratsiyaga yo'l ochib berdi. Natijasida Yevropa va Osiyoning turli mamlakatlaridan Janubiy Amerikaga ancha miqdorda kishilar ko'chib keldi. Italiya, Germaniya Bolqon mamlakatlaridan ayniqsa ko'p Rossiya Xitoy va Yaponiyadan kamroq emigrant ko'chib keldi.

Keyingi davrda ko'chib kelgan bu emigrantlar odatda boshqalardan ajralgan holda yashab o'z tili urf-odatlati madaniyati va dinini saqlab qolmoqda.

Bular bazi bir mamlakatlarda (Braziliya, Argentina, Urugvayda) aholining kattagina gruppasini tashkil qiladi.

Janubiy Amerika tarixining o'ziga xos xususiyatlari va buning oqibati bo'lgan hozirgi aholining joylashishidagi notekislik va aholi o'rtacha zichligining nisbattan kamligi Janubiy Amerikada tabiiy sharoitining boshqa matetriklardagiga qaraganda ko'proq saqlanganligiga sabab bo'ldi.

Amazonka pasttekisligining katta qismi Gviana tog'ligining markaziy qismi (Rorayma massivi) And tog'lari va Tinch okeani sohilining janubi-g'arbiy qismida aholi deyarli butunlay yo'q va bu yerlar amalda o'zlashtirilmagan. Amazonka o'rmonlarining boshqa xalqlar bilan deyarli aloqa qilmaydigan ayrim ko'chmanchi qabilalari tabiatga tasir ko'rsatishidanki unga ko'proq bo'g'liqdir. biroq bunday rayonlar tobora qisqarib

bormoqda.Foydali qazilmalar qazib chiqarish yo'llar qurulishi yangi yerlarni o'zlashtirish Janubiy Amerikada materikning ichkarisiga kirib bormoqda .

And tog'larining shimoliy qismida hozigi Kolumbiya teritoriyasida ispan mustamlakachilari kelmasdan oldin Chipcha-Muisca kalqlarining madaniy davlati tarkib topgan edi.Hozir Chipchalarning avlodlari bo'lgan kichik-kichik qabilalar Kolumbiyada va Panama bo'ynida yashaydi.Ular urug'chilik qabila tuzimining qoldiqlarini saqlab qolgan.

Yevropadan Amerikaga oilasiz ko'chib kelgan dastlabki kelgindilar Indiankalar bilan nikoxga kirganlar.Natijada chatishma –mitis aholi yuzaga keldi.

XULOSA.

Janubiy yarim sharda ekvatorial va subekvatorial mintaqalarida joylashgan Janubiy Amerika materigi hayvonot dunyosining xilma-xilligi,o'simliklari va tuprog'ining unimliligi bilan ajralib turadi.Bu materikning shimoliy qismidan ekvator kesib o'tadi.shimoldan janubga 7000 km,g'arbdan sharqqa 5000 km cho'zilgan.U Amerika qit'asining bir bo'lagi.Materikni g'arbda Tinch,sharqda esa Atlantika okeani suvlari yuvib turadi.Atlantika okeanidan keladigan iliq havo massalari materikka ko'p yog'in keltirganligi sababli iqlimining sernam bo'lishiga asos bo'ladi. G'arbda Tinch okeanidan esadigan sovuq oqimlar yani Peru,Chili,oqimlari materikning g'arbiy qismida yog'in kam bo'lishiga sabab bo'lgan buning natijasida Atakama cho'li hosil bo'lgan.

Janubiy Amerika materigi boshqa materiklardan o'ziga xos bo'lgan quyidagi xususiyatlari bilan farq qiladi.Dunyodagi eng sersuv daryosi-Amazonka uzunligi 6400 km

uning 500 dan ortiq irmog'i bor havzasining maydoni 7000 km ,eng baland sharsharasi-Anxel,Oroniko daryosining churun irmog'ida joylashgan bo`lib balandligi 1054 m.Eng keng sharsharasi-iguasi Parana daryosida joylashgan bo`lib kengligi 2700 m balandligi 2m u butun dunyoning ham eng keng sharsharasidir.eng katta iloni anaconda Tinch okeani sohillarida yashaydi,eng mitti “odamxo`r”balig`I Piranya ,eng uzun tog`i-And tog`I uzunligi 9000 km.Eng katta daryo havzasi-Amazonka,eng balandda joylashgan chuchuk suvli katta ko`li-Titikaka ko`li balandligi 3810 m ,eng baland harakatdagi vulkani-Iyuyaylyako balandligi 6723 m ,eng qalin Amazoniya o`rmonlari-“sayyoramiz o`pkasi”bor.Eng sernam materikdir.

Janubiy Amerika materigini har tomonlama chuqur o`rganib shunga amin bo`ldikki u barcha turdagi tabiiy resurslar yani mineral boyliklar mis,qalay,qo`rg`oshin,oltin,kumush,platina va boshqa ko`plab meniral boyliklarga,iqlimiy resurslar bilan har jihatdan yaxshi taminlangan va geografik joylashish nuqtai nazardan ham qulay joylashganligini guvohi bo`lamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- 1.T.V.Vlasova Materiklar tabiiy geografiyasi Toshkent “o`qtuvchi”-1983 y.
- 2.A.Soatov,A.Abdulqosimov Geografiya(materiklar va okeanlar yabiiy geografiyasi) 6-sinf darsligi.Toshkent “o`qtuvchi”-2009 y.
- 3.SHubayev Umumiy yer bilimi.Toshkent 1991 y.
- 4.P Baratov Yer bilimi va o`lkashunoslik.Toshkent “o`qtuvchi”-1990 y.

5. 9-sinf jahon iqtisodiy-ijtimoiy geografiyasi atlas.

6. 6-sinf Materiklar tabiiy geografiyasi atlas.